

## TARBIYA JARAYONIDA OILAVIY MUNOSABATLARNING FARZAND RUHIYATIGA TA'SIRI

**SHAROPOV O'Imasbek Shuhrat o'g'li**

*O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti*

*sharopovolmasbek871@gmail.com*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning farzand tarbiyasi va kelajagi uchun qanchalik muhimligi, ota-ona munosabatlarining ijobiy yoki salbiyligi farzandlarining ruhiy holatiga ta'siri, to'liq bo'lmagan oilalarda voyaga yetayotgan o'g'il va qiz farzandlar duch kelayotgan muammolar yoritib berilgan. Oila imidjining shakllantirishda ota va onaning o'zaro munosabatlari ahamiyati yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Oila, farzand tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, ma'naviy sog'lomlik, o'smir, ota-ona, oila imidji, madaniy munosabatlar, oilaviy muhit.*

## ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ НА ПСИХОЛОГИЮ РЕБЕНКА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ

**Шаропов Улмасбек Шухрат угли**

*Докторант Национального университета Узбекистана*

*sharopovolmasbek871@gmail.com*

### АННОТАЦИЯ

*В статье рассматривается важность семейных отношений для воспитания и будущего детей, влияние позитивных или негативных родительских отношений на психическое состояние детей, а также проблемы, с которыми сталкиваются мальчики и девочки, растущие в неполных семьях. Подчеркивается важность взаимоотношений отца и матери в формировании образа семьи.*

**Ключевые слова:** *Семья, воспитание детей, семейные отношения, духовное здоровье, подросток, родители, образ семьи, культурные связи, семейная среда.*

## THE INFLUENCE OF FAMILY RELATIONSHIPS ON THE CHILD'S PSYCHOLOGY DURING THE PROCESS OF EDUCATION

**SHAROPOV Ulmasbek Shuhrat ugli**

*Researcher, National University of Uzbekistan*

*sharopovolmasbek871@gmail.com*

## ABSTRACT

*This article discusses the importance of family relationships for the upbringing and future of children, the positive or negative impact of parental relationships on the mental state of children, and the problems faced by boys and girls growing up in single-parent families. The importance of the relationship between father and mother in the formation of the family image is highlighted.*

**Keywords:** Family, child upbringing, family relationships, spiritual health, teenager, parents, family image, cultural relations, family environment.

## KIRISH

Barcha insoniy munosabatlar orasida oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar ayniqsa teran va mustahkamdir. Oila- jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida, jamiyat rivoji uchun eng katta hissa qo'shadigan institut hisoblanadi. Undagi munosabatlarning ishonch, mehr, muhabbat va hurmat asosiga qurilganligi ayniqsa yosh avlodni ruhiy jihatdan yetuk qilib tarbiylashada yuqori ahamiyat kasb etadi. Oilaviy munosabatlar quyidagi 4 qisimdan tashkil topgan:

1. **Ruhiy-fiziologik munosabatlar** – biologik turdoshlik va jinsiy eitiyojni qondirish munosabatlari.

2. **Psixologik munosabatlar** – ochiqlik, bir-biriga ishonch va g'amxo'rlikni, bir-birini ma'naviy va emotsional qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi.

3. **Ijtimoiy munosabatlar** – oilada rollarning taqsimlanishi, oiladagi moddiy qaramlikni, shuningdek nufuz, rahbarlik, bo'ysunish va boshqa munosabatlarni o'z ichiga oladi.

4. **Madaniy munosabatlar** – mazkur oila vujudga kelgan va yashayotgan u yoki bu madaniyat sharoitlarida yuzaga kelgan an'analar va odatlar bilan belgilanuvchi oiladagi alohida munosabatlar.<sup>1</sup>

Bu munosabatlar albatta bola tarbiyasida asosiy o'rin tutadi. Oilaviy munosabatlarning qay darajada va nima asosida tuzilganligi farzandning ruhiy holatiga yoki ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Oilada ota va onaning bir biriga bo'lgan munosabatlaridagi mehr, muhabbat va ishonch tuyg'ulari bola yoshlik chog'idanoq uning psixikasida o'z aksini topadi. Bola ruhiy holatining buzilishi, asabiylik, diqqat-e'tiborni jamlolmaslik, odobni tez-tez buzilishi asosan ota-ona munosabatlaridagi kamchiliklar natijasi sifatida baholanadi.

Ota-ona o'z ruhiy va ma'naviy sog'lijiga alohida e'tibor berishi lozim. O'z ruhiy sog'ligining holatiga to'g'ri baho bermaslik bolalarga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

<sup>1</sup> Inomova M. "Oilaviy tarbiyani takomillashtirishning nazariy asoslari" "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent. 1998-yil 3-son.

Ma'naviy sog'lom odamlar uchun o'z sha'niga dog' tushirmaslik, bolalar baxti haqida g'amxo'rlik qilish, xotini yoki erining qarashlari va xohish-istaklariga hurmat bilan munosabatda bo'lish asosiy axloqiy qadriyatlar hisoblanadi. Ular oilaning an'anaviy tarkibini saqlaydi, o'z farzandlarini nafaqat hayotda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga intilish, balki o'z ota-onasi va qarindoshlarining munosib imidjini saqlash ruhida ham tarbiyalaydi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ota-ona farzandlarida o'z bolalarining bo'lg'usi ota-onasini ko'rishlari lozim. Aqliy va jismoniy jihatdan faol hayot kechirish, axloqiy-ma'naviy sog'lomlik va beg'uborlik bola normal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bosh omillardir.

Oila – jamiyatning muhim bo'g'ini. Unda biz o'z hayotimizning eng yaxshi va muhim qismini o'tkazamiz. Oila shaxsning shakllanish sarchashmasi hisoblanadi va uning jismoniy va ma'naviy sog'lomlik darajasini belgilaydi.

Ota-onaning oiladagi maqomi ularga muloqot qoidalariga rioya etish majburiyatini yuklaydi, kattalar xulq-atvori shartlarini belgilaydi. Muayyan sharoitdagi xulq-atvorni modellashtirish muloqot jarayonida o'zini to'g'ri tutish demakdir. Bolalar oldida ota-onalarning bir-birining fikrini hurmat qilgan holda madaniy muomala qilishi, farzandlarning jamoa bilan kirishimli bo'lishi, jamiyatda har qanday muammoli vaziyatlarni muomala orqali murosa-madora yo'li bilan hal qilish ko'nikmasini shakllantirishda boshlang'ich bo'g'in vazifasini ta'minlab beradi.

Ota-ona oilada har jihatdan o'z farzandlariga o'rnak bo'ladi. Bola ulg'aygani sari ota-ona imidjining unga bo'lgan ta'siri kuchayib boradi. Ayrim ota-onalar bunga ko'pincha e'tibor bermaydilar. Aksariyat hollarda ular uyda o'z tashqi ko'rinishiga qaramay qo'yadilar. Vaholanki, bu bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ular muqarrar tarzda hayotda o'z ota-onasiga taqlid qiladi. Buning natijasida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishi va buning natijasi o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishda qiyinchilikka uchrashi mumkin.

To'liq bo'lmagan (ya'ni otasiz yoki onasiz) oilada tarbiya uchun o'ziga xos sharoitlar yuzaga keladi. Oilada otaning yo'qligi o'g'il bolalarga qiz bolalarga qaraganda salbiyroq ta'sir ko'rsatadi: otasiz ular ko'pincha urishqoqroq va sertashvishroq bo'lib o'sadilar. Bunday oilalarda voyaga yetgan qizlarning xulq-atvori to'liq oilada tarbiyalangan qizlar xulq-atvoridan uncha farq qilmaydi.<sup>2</sup>

Ota-onasining ajrashishi, ular o'rtasidagi urush-janjallar bola uchun muammolar manbaiga aylanadi. O'smirlarda ruhiy holatning buzilishi va huquqbuzarliklar ko'pincha ota-onaning ajrashishi bilan bojliq bo'ladi. Ota-onasi ajrashgan oilalarda

<sup>2</sup> Lutfullayev N. "Oilaning tarbiyaviy ahamiyati". "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent; 2005.

tarbiyalangan bolalarning o'ziga munosabati to'liq oilalarda ulg'ayayotgan bolalarning o'ziga munosabatiga qaraganda salbiyroq bo'ladi. Asosan jamiyatdan norozilik, insonlarga nisbatan ishonchsizlik hislari ularni jamiyatda o'zi xohlagan darajaga erishishiga to'sqinlik qiladi.

Ota-onaning ajrashishi oiladagi muhitga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning salbiy oqibatlarini o'g'il bolalarda qiz bolalarga qaraganda kuchliroq seziladi. Ota-onasi ajrashganidan so'ng o'g'il bolalar ko'pincha bebosh va jizzaki bo'lib qoladi, o'zini boshqarish qobiliyatini yo'qotadi. Xulq-atvorning bu o'ziga xos jihatlari ota-ona ajrashganidan keyingi dastlabki oylarda ayniqsa bo'rtib ko'rinadi.

Ota-ona o'z farzandiga har tomonlama barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashishi lozim. Ular ta'minotchi emas, balki tarbiyachi bo'lishi kerak. Agar ular o'z farzandini faqat ta'minlasa, bola baxtli bo'lmaydi. Chetda boyroq va omadliroq odam doim topiladi. Ular aytgan so'zi qonun sanalgan, bola cheksiz ishonadigan ota-ona bo'lishi lozim. Shunda bola uyda nimani eshitgan bo'lsa, hammasi haqiqat ekanligini biladi. Bu uni maktabda va ko'chada eshitgan gaplardan psixologik jihatdan himoya qiladi.

Bolani bobolar va buvilar tarbiyalashiga har xil yondashish mumkin. Ko'pgina ota-onalar bolani faqat o'zlari to'g'ri tarbiyalay olishlariga ishonadilar. Ayrimlar esa, aksincha, o'z hayotining o'tkinchi muammolarini hal qilgan katta avlod vakillariga bolalarga to'g'ri tarbiya berishga qodir, deb hisoblaydilar. Bobolar va buvilar bolalarni yaxshiroq tarbiyalashga qodir, degan fikr ancha bahslidir. Zero, bugungi bobolar va buvilar mohiyat e'tibori bilan kechagi otalar va onalardir. Nima bo'lganda ham, oilada tarbiya borasida ota-ona o'rnini hech kim bosa olmaydi.

Ota-ona va bolalarning o'zaro aloqalari jarayoni tahlili bolaning ikki tomonlama aloqa manbalari sifatida ayniqsa muhim bo'lgan o'zaro munosabatlarning uch sohasini farqlash imkonini beradi:

birinchi – ota-ona o'z farzandining do'stlarini bilishi;

ikkinchi – ota-ona o'z farzandining o'qishi natijalariga qiziqishi;

uchinchi – ota-ona oila davrasidagi umumiy suhbatda o'z farzandi bilan muloqot qilishi. Bu uch sohadagi o'zaro munosabatlar bolaning yaxshi rivojlanishidan manfaatdorlik ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin.<sup>3</sup>

Kichik maktab yoshi va o'smirlik davrida bolalarning emotsional hayoti asosan ularning oshna-og'aynilari doirasi bilan belgilanadi. Shu sababli ota-onaning o'z o'g'li yoki qizining do'stlari va dugonalariga bo'lgan munosabati ularning bolaga bo'lgan qiziqishining bilvosita ko'rsatkichi hisoblanadi.

<sup>3</sup> Maqsudov T. tahriri ostida "Oila etikasi va psixologiyasi" Toshkent; "O'qituvchi". 1991.

O‘qish natijalariga qiziqish – ota-onaning bolaga bo‘lgan umumiy qiziqishining muhim ko‘rsatkichi. Maktabda ishlar qanday ketayotganini bolaning kundalik daftarinu tekshirish orqali bilish mumkin. Shu sababli kundalik daftardagi joriy yozuvlarga ota-onaning munosabati ularning o‘z o‘g‘li yoki qizining o‘qishiga, ularning qobiliyatlari va shaxsiy fazilatlariga bo‘lgan munosabatini tavsiflaydi.

Odatda har oqshom butun oila dasturxon atrofida yig‘iladi. Bu vaziyat ota-onaning o‘z farzandiga qiziqishi nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir, chunki unda oiladagi o‘zaro munosabatlarning butun rang-barangligi aks etadi. Bolaning o‘ziga munosabati unga qanday qarashlari, atrofdagilar unga qay darajada qiziqishlari bilan uzviy bojliq. Agar bola o‘ziga past nazar bilan qarasa, u o‘z fikrlari va mashg‘ulotlari boshqalarga qiziqarli emas, deb hisoblashga moyil bo‘ladi. Ota-onasining xulq-atvori va o‘ziga bo‘lgan munosabatidagi qandaydir holatlar uning bunga bo‘lgan ishonchini mustaikamlab boradi. Oiladagi o‘zaro munosabatlarning yuqorida qayd etilgan uch sohasidan har biri o‘z holicha ota-onaning farzandiga bo‘lgan qiziqishi darajasini aks ettirmasligi ham mumkin. Biroq ota-onaning o‘z farzandiga befarq munosabati va bola o‘ziga past nazar bilan qarashi o‘rtasida bevosita aloqa mavjud.<sup>4</sup>

Bolalarga munosabat insoniylikning oliy ko‘rinishi, timsoliga aylanishi lozim. Bolalarga muhabbat – ota-ona faoliyatining bosh omili. O‘z farzandiga mehribon ota-ona bolaning o‘zligi va ehtiyojlariga ko‘proq mos keladigan xulq-atvor andozalarini intuitiv tarzda va ongli ravishda tanlaydi. Bunday ota yoki ona imidji benuqsondir. Ular bola uchun ma‘naviy yo‘lboshchi, ishonchli do‘st va dono suhbatdosh vazifasini bajaradi. Ularning obrazi bola xotirasida uzoq vaqt, ba‘zan bir umr saqlanib qoladi, hayotda o‘rnak bo‘lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Inomova M. “Oilaviy tarbiyani takomillashtirishning nazariy asoslari” “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent, 1998-yil 3-son.
2. Lutfullayev N. “Oilaning tarbiyaviy ahamiyati”. “Xalq ta’limi” jurnali. Toshkent; 2005-yil 2-son.
3. Maqsudov T. tahriri ostida “Oila etikasi va psixologiyasi” Toshkent; “O‘qituvchi” 1991.
4. Azarov Y.P. “Oila pedagogikasi” Toshkent, “O‘qituvchi”, 2008.

<sup>4</sup> Azarov Y.P. “Oila pedagogikasi” Toshkent, “O‘qituvchi”. 2008.